

**FAXRIY PROFESSOR ALISHER AZIZXO‘JAYEVNING ILM-FAN
RIVOJI, HUQUQIY DAVLAT BARPO ETISHDAGI HARAkatLARI,
IBRATLI HAYOT YO‘LI VA ILMIY-MADANIY MEROSI.**

Qurbonov Siyovush Jamaliddinzoda

Toshkent davlat yuridik universitetining

Ommaviy huquq fakulteti 2-kurs talabasi

El.pochta: qurbonovsiyovush1009@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada faxriy professor Alisher Azizxo‘jayev Abbosovichning O‘zbekiston Respublikasida ilm-fan taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishdagi faol ishtiroki hamda uning ibratli hayot yo‘li har tomonlama tahlil qilinadi. Shuningdek, muallif tomonidan Alisher Azizxo‘jayev Abbosovichning ilmiy izlanishlari, ijtimoiy-huquqiy g‘oyalari, pedagogik faoliyati va ma‘naviy-ma‘rifiy merosi tarixiy-madaniy kontekstda tutgan o‘rganiladi. Shuningdek, mazkur maqolada u kishining huquqiy ongini shakllantirish, konstitutsiyaviy qadriyatlarni mustahkamlash va yosh avlodni huquqiy madaniyat ruhida tarbiyalash borasidagi tashabbuslari chuqur yoritiladi. Shuningdek, professor Azizxo‘jayevning ilmiy faoliyati O‘zbekiston ilmiy-huquqiy ta‘lim muassasalarininig rivojlanishiga ko‘rsatgan ta‘siri nuqtai nazaridan tahlil etiladi.*

Kalit so‘zlar: *Huquqshunos olim Alisher Azizxo‘jayev, Huquqiy davlat qurishdagi sa‘y-harakatlari, Davlat boshqaruv sohalaridagi xizmatlari. Jamatchilik e‘tibori.*

The development of science, his efforts in establishing a legal state, his exemplary life path and scientific and cultural heritage of Honorary Professor Alisher Azizkhodjayev.

Kurbanov

Siyovush

Jamaliddinza

Tashkent State Law

University

Public Law

Student of the Faculty of

Email: gurbonovsiyovush1009@gamil.com

Annotation. This article comprehensively analyzes the contribution of Honorary Professor Alisher Azizkhodjayev Abbosovich to the development of science in the Republic of Uzbekistan, his active participation in establishing a legal state and civil society, and his exemplary life path. In addition, the author studies the scientific research, socio-legal ideas, pedagogical activities and spiritual and educational heritage of Alisher Azizkhodjayev Abbosovich in a historical and cultural context. This article also deeply covers his initiatives to form legal consciousness, strengthen constitutional values, and educate the younger generation in the spirit of legal culture. It also analyzes the scientific activities of Professor Azizkhodjayev from the perspective of his influence on the development of scientific and legal educational institutions in Uzbekistan.

Keywords: *Legal scholar Alisher Azizkhodjayev, Efforts to build a legal state, Services in the fields of public administration. Public attention.*

Развитие науки, право на создание правового государства, образцовый жизненный путь и научное и культурное наследие почетного профессора Алишера Азизходжаева.

Курбанов Сиёвуш Джамалиддинзода

Ташкентский государственный юридический университет

Студент 2 курса факультета публичного права

Электронная почта: gurbonovsiyovush1009@gamil.com

Аннотация. В данной статье всесторонне анализируется вклад почетного профессора Алишера Аббосовича Азизходжаева в развитие науки Республики Узбекистан, его активное участие в становлении правового государства и гражданского общества, его образцовый жизненный путь. Кроме того, автор изучает научные исследования, социально-правовые идеи, педагогическую деятельность, духовно-просветительское наследие Алишера Аббосовича Азизходжаева в историко-культурном контексте. В статье также подробно рассматриваются его инициативы по формированию правосознания, укреплению конституционных ценностей и воспитанию подрастающего поколения в духе правовой культуры. Научная деятельность профессора Азизходжаева также анализируется с точки зрения ее влияния на развитие научных и юридических образовательных учреждений Узбекистана.

Ключевые слова: *Ученый-правовед Алишер Азизходжаев, его усилия в построении правового государства, его заслуги в сфере государственного управления. Внимание общества.*

Kirish :

Huquqshunos olim faxriy professor Alisher Azizxo‘jayev Abbosovich, 1953 yilda O‘zbekiston Respublikasining Farg‘ona viloyatining Rishton tumanida tavallud topgan. Uning otasi Farg‘ona viloyatidagi huquqni himoya qilish tashkilotlarida faoliyat yuritganligi uchun, yoshligidan ilmga, adolatga va ijtimoiy faoliyatga qiziqqan. Maktabni a’lo baholar bilan tamomlab, yurtimizdagi nufuzli oliy ta’lim muassasalaridan biri bo’lgan Lenin nomidagi Toshkent davlat universiteti (hozirgi Toshkent davlat yuridik universiteti) ning yuridik fakultetiga o’qishga kirib 1975 yilda o’qishni tamomlagan¹. Keyinchalik aspirantura, nomzodlik-doktorlik dissertatsiyalarini himoya qilib, yuridik fakultetida dars beradi. Shuningdek, Alisher

¹ Azizxo‘jayev Alisher Abbosovich- <https://akademiklar.uz/azizxojayev-alisher-abbosovich>

Azizxo‘jayevning juda ko‘plab huquqshunoslarning yetishib chiqishida ko‘makchi bo‘lgan desak mubolag’a bo‘lmaydi².

Alisher Azizxo‘jayev Abbosovich, O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan yillaridanoq, O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Abdug‘aniyevich Karimov bilan birgalikda huquqiy davlat qurishda astoyidil xizmatlar ko‘rsatgaligi barchamizga ma‘lum. Shuningdek, 1992-1994 yillar oralig‘ida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlatlar va millatlararo munosabatlar bo‘yicha davlat maslahatchisi lavozimida faoliyat yuritgan. Shuningek, 1994-1996-yillarda esa O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Fan ta‘lim va ijtimoiy masalalar bo‘yicha davlat maslagatchisi sifatida faoliyat yuritgan. Shuningdek, 1996-1998 yillarda Bosh vazir o‘rinbosari sifatida (madaniyat va ta‘lim ishlarini nazorat qiladi). Ushbu davr oralig‘ida davlatning rivojlanishida judda katta xizmatlar ko‘rsatgan. Shuningdek, bir vaqtning o‘zida 1998 yil 21 apreldan boshlab diniy oqim va guruhlar faoliyatini qonuniyligini o‘rganish bo‘yicha Muassasalararo hay‘ati a‘zosi sifatida faoliyat yuritdi³.

1998 yil 10 iyul – Axborot faoliyati va ma‘lumotlarni uzatish samaradorligini oshirish komissiyasi rais o‘rinbosari lavozimida ishlagan vaqtlarida, O‘zbekiston axborot texnologiyalari sohasi endigina shakllanib borayotgan edi. Alisher Azizxo‘jayevning mazkur lavozimdagi ishtiroki axborot xavfsizligi, axborot siyosati va davlat organlari faoliyatining ochiqqligini ta‘minlashga yo‘naltirilgan strategik islohotlarda muhim qadam bo‘lgan. Uning boshqaruvidagi komissiya davlat va jamiyat orasidagi axborot almashinuvi tizimini takomillashtirishga katta xizmat qilgan. Shu bilan birga, 1999–2003 yillar – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi rektori lavozimida faoliyat yuritganlar. Bu lavozimda Alisher Azizxo‘jayev faoliyatining ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan eng sarmazmun davrlaridan biridir. Akademiyada u davlat boshqaruvi, huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati va boshqaruv kadrlarini tayyorlash yo‘nalishida

² Azizxo‘jayev Alisher Abbosovich- <https://akademiklar.uz/azizxojayev-alisher-abbosovich>

³ <https://inlibrary.uz/index.php/ustozlar/article/view/89659>

chuqur islohotlarni olib borgan. Akademiya rektori sifatida u davlat xizmatining zamonaviy modeli, huquqiy ong va ijtimoiy faollikni oshirish bo'yicha innovatsion yondashuvlarni ilgari surgan.

2003 yil 7 oktyabr – O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining madaniyat ishlari bo'yicha o'rinbosari; Ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha Respublika kengashi raisi, 2004 yil 4 oktyabrda esa, Madaniyat va sport ishlari Vaziri lavozimlarida faoliyat yuritgan. Mazkur davr oralig'ida Alisher Azizxo'jayev davlat madaniy siyosatini shakllantirish va ma'naviy-ma'rifiy sohalarda islohotlar olib borishda bosh rolni o'ynagan. Aynan shu yillarda milliy g'oya, ma'naviyat, madaniy meros va o'zbek milliy qadriyatlariga asoslangan davlat dasturlari amalga oshiradi. U o'z faoliyatida jamiyat axloqiy immunitetini mustahkamlash, yoshlarda vatanparvarlikni kuchaytirish va mafkuraviy barqarorlikni ta'minlashga e'tibor qaratgan. Shuningdek, madaniyat siyosatini tizimli ravishda boshqarish imkonini berdi. Uning rahbarligida teatr, san'at, adabiyot, xalq ijodi va sport sohalari rivojlantirildi. Shu bilan birga, madaniyat muassasalari infratuzilmasi modernizatsiya qilinadi, yosh ijodkorlar va sportchilarni qo'llab-quvvatlash dasturlari kengaytirildi. Bu lavozimda u madaniyat orqali milliy birlikni mustahkamlash g'oyasini faol ilgari surgan⁴.

Shu bilan birga, 2006 yil 6 iyul – 2007 yil noyabrga qadar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot kotibi, va 2007 yil noyabrdanboshlab – Toshkent davlat yuridik institutida kafedra mudiri lavozomlarida faoliyat yuritgan. Mazkur davr oralig'ida, Alisher Azizxo'jayev davlat rahbari siyosatini xalqaro va mahalliy jamoatchilikka yetkazish, O'zbekistonning imidjini xalqaro axborot maydonida shakllantirishda muhim vazifalarni bajargan. Prezident matbuot kotibi sifatida u ochiqlik, tezkorlik va ishonchlilik tamoyillariga asoslangan axborot siyosatini yuritgan. Shuningdek, Toshkent davlat yuridik institutida (hozirgi Toshkent davlat yuridik universiteti) da kafedra mudiri lavozimlarida faoliyat yuritgan. Shu bilan bir

⁴ Azizxo'jayev Alisher Abbosovich- <https://akademiklar.uz/azizxojayev-alisher-abbosovich>

vaqtda O'zbekiston Respublikasi kurash federatsiyasi (milliy kurash) prezidenti vazifasini ham bajargan. Ya'ni Kurash sportining – o'zbek milliy sporti sifatida davlat e'tiborida bo'lib kelmoqdaligi. Alisher Azizxo'jayev ushbu federatsiyaga rahbarlik qilish orqali o'zbek milliy sport turlarini xalqaro maydonga olib chiqishda, yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, hamda vatanparvarlik ruhini kuchaytirishga xizmat qilganligi barchamizga ma'lum.

Yana bir narsani e'tiborga olishimiz kerak-ki, Alisher Azizxo'jayev Abbosovich ko'p yillik xizmatlari natijasida davlatimizning rivojlanishida, katta xizmatlar amalga oshirilganligi turli sohalarning rivojlanishida juda katta hissa qo'shganligi shuningdek, bugungi mustaqil va zamonaviy O'zbekistonning shu darajada yetishida o'z hissasini qo'shgan fidoiy shaxslardan biri desak mubolag'a bo'lmaydi. Shuningdek, Alisher Azizxo'jayev Abbosovichning Toshkent davlat yuridik institutida (hozirgi Toshkent davlat yuridik universiteti)da faoliyat yuritgan paytlarida ham ko'plab talaba va huquqshunoslarning ustozlari sifatida e'tirof etiladi. Biroq taqdir taqazosi bilan Alisher Azizxo'jayev 2012 yil 9 yanvar oyida 58 yoshida saraton kasalligidan vafot etgan.

Hozirgi kunda, Alisher Azizxo'jayev Abbosovichning xotirasiga bag'ishlangan juda ko'plab tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan, 2025 yilda Toshkent davlat yuridik universitetida *“Yangi O'zbekistonda konstitutsiyaviy huquq fanining dolzarb muammolari”* mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazildi. Toshkent davlat yuridik universiteti Konstitutsiyaviy huquq kafedrasida tashabbusi bilan yuridik fanlar doktori, professor Alisher Azizxo'jayev xotirasiga bag'ishlangan ushbu anjuman nufuzli olimning ilmiy merosini e'zozlash va konstitutsiyaviy huquq sohasidagi muammolarni muhokama qilish maqsadida tashkil etildi⁵. Shuningdek mazkur konferensiya doirasida Alisher Azizxo'jayev nomidagi o'quv xonasining ochilish marosimi o'tkazildi. Ushbu xonada anjuman ishtirokchilari Azizxo'jayevning hayot yo'li va faoliyatiga oid suratlar bilan tanishishdi, buning

⁵ Toshkent davlat yuridik universiteti [yangiliklari, 2025 yil manba](https://scientific-jl.org/obr).

natijasida esa uning davlat boshqaruvidagi qilgan xizmatlari yanada yorqin namoyon etdi. Mazkur konferensiya doirasida Alisher Azizxo‘jayev Abbosovichning xotirasi doimiy ravishda e‘tiborga olinib uning qilgan xizmatlarni qadrlanishini taminlash maqsadida turli masul xodimlarga majburiyatlar yuklatildi.

Umumiy xulosa qiladigan bo‘lsak, Alisher Azizxo‘jayev Abbosovich — O‘zbekistonning yirik huquqshunos olimi, davlat arbobi va ma‘naviy-ma‘rifiy soha yetakchilaridan biri sifatida, mamlakatimizning huquqiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotiga beqiyos hissa qo‘shgan. Uning ilmiy faoliyati, davlat boshqaruvidagi ishtiroki va ma‘naviy qadriyatlarni targ‘ib etishdagi sa‘y-harakatlari O‘zbekiston tarixida muhim o‘rin egallaydi.

Azizxo‘jayevning huquqiy davlat qurishdagi xizmatlari, ayniqsa, mustaqillik yillarida konstitutsiyaviy huquq va davlat boshqaruvi sohalarida amalga oshirgan islohotlari bilan ajralib turadi. Uning rahbarligida olib borilgan ilmiy va amaliy ishlar, yosh huquqshunoslarni tayyorlashdagi hissasi, shuningdek, madaniyat va sport sohalaridagi faoliyati O‘zbekistonning barqaror rivojlanishiga xizmat qilgan.

Bugungi kunda Alisher Azizxo‘jayevning nomi bilan atalgan o‘quv xonalari va tadbirlar uning boy ilmiy merosini e‘zozlash va kelajak avlodlarga yetkazish yo‘lida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Uning hayoti va faoliyati, ayniqsa, huquqshunoslik, davlat boshqaruvi va ma‘naviyat sohalarida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar uchun ibrat bo‘lib xizmat qiladi.

Foyidalanilgan adabiyotlar ro‘yxati :

- 1) Azizxo‘jayev Alisher Abbosovich- <https://akademiklar.uz/azizxojayev-alisher-abbosovich>
- 2) Azizxo‘jayev Alisher Abbosovich- <https://akademiklar.uz/azizxojayev-alisher-abbosovich>
- 3) Azizxo‘jayev Alisher - <https://inlibrary.uz/index.php/ustozlar/article/view/89659>

4) Azizxo'jayev Alisher Abbosovich- <https://akademiklar.uz/azizxojayev-alisher-abbosovich>.

5) Toshkent davlat yuridik universiteti [yangiliklari, 2025 yil manba](#).